XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Chiroqchi, +998 97 617 1952, kengashchiroqchi@gmail.com

2026-yil 26-avgust VII-21-78-4-66-K/26 Chiroqchi tumani

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, tuman markaziy ko‘chalari bo‘yida joylashgan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qaroriga muvofiq 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalariga tuman va shaharlar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish huquqi berilganligi hamda mazkur xizmatlar tariflarini belgilash xalq deputatlari Kengashlari vakolatiga kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar” bo‘yicha doimiy komissiyasining xulosasi hamda tuman hokimining o‘rinbosari B.Norqobilovning taklifi ma’qullansin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari (yuridik shaxslar) bilan tuziladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar tariflari miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (B.Abdullayev):

-tuman markaziy ko‘chalari bo‘yida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari bilan belgilangan tariflar asosida shartnomalar tuzilishi va xizmatlar o‘z vaqtida, sifatli ko‘rsatilishini ta’minlasin;

-ko‘rsatilgan xizmatlardan tushgan mablag‘larning maqsadli ishlatilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ishchi-xodimlarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltirilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati ushbu qaror bilan tasdiqlangan tariflarni keng jamoatchilik va tadbirkorlik subyektlariga veb-sayt hamda rasmiy telegram kanal orqali ma’lum qilinishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar” bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi D.Avlayorov hamda ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari B.Norqobilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ISHTEMIROV BAHODIR HASANOVICH**

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2026-yil 26-avgustdagi
VII-21-78-4-66-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Chiroqchi tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha
TARIFLAR

Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqam**	**Oʻlchov birligi**	**Ta'rif miqdori (soʻm)**
Tadbirkorlik subyektlari uchun	Maishiy chiqindilar	m3	88 264,0
Tadbirkorlik subyektlari uchun	Obodonlashtirish	m2	7 500,0

Izoh: Ushbu tariflar Chiroqchi tumani markaziy koʻchalari boʻyida joylashgan yuridik shaxslar va tadbirkorlik subyektlari uchun shartnoma asosida majburiy va ixtiyoriy koʻrsatiladigan xizmatlar xajmidan kelib chiqib qoʻllaniladi.